

# TA'LIM TURIZMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

*Muallif: Bekkayev Jasur Shermaxmatovich,  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

## Annotatsiya

Ta'lism turizmi mamlakat iqtisodiyotini yangi zamonaviy bosqichga olib chiquvchi muhim iqtisodiy tarmoqlar qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan bu tarmoqni doimiy differsifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlariga zamon talablariga javob beruvchi kadrlarni yetkazib berish har qachongidan ham muhim hisoblanadi. Rivojlanishlar natijasida paydo bo'layotgan zamonaviy kasblarni aynan ular paydo bo'lgan joyiga borib o'rganish ham qisqa muddatda, ham sifatli ta'lism olish imkonini yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lism turizmi, almashinuv dasturlari, ta'lism turizmi va zamonaviy yondashuvlar

Ta'lism turizmi ham o'z navbatida uzoq yillik rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib, doimiy yangilanish, zamon talabiga moslashish uchun islohotlarni talab qildi. Ta'lism turizmi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tarixiy jihatlariga ko'ra taraqqiyotning turli bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Yevropada ta'lism maqsadlarida xalqaro sayohatlar an'anasi IX asrda universitetlar sonining ko'payib borishi natijasida paydo bo'ldi. XII asrdan boshlab, akademik va talabalar almashinuvi rivojlainsh tendensiyasiga ega bo'la boshladi. Buyuk mutafakkirlar (J.Lok, J.Ruso va boshqalar) g'oyalari ta'sirida XVII asr oxiri va XVIII asrning birinchi yarmida Yevropaning bir qancha ta'lism muassasalari o'z o'quvchilari uchun ilmiy ekskursiya va ekspeditsiyalarni tashkillashtirishni yo'lga qo'ydi. XIX asrning o'rtalaridan Yevropa va Amerikada yangi shakldagi oliy o'quv yurtlarining tashkil etilishi va ularning ixtisoslashuvi, talabalarning xalqaro harakatini ko'payishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Shu davrga kelib Rossiyaning yetakchi pedagoglari ta'lism turizmining targ'ibotchilari va tashkilotchilari sifatida namoyon bo'ldi.

Yurtimizda ta'lism turizmining paydo bo'lish tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu jarayon qadimiy shaharlar Islom dini ta'limi uchun o'zga davlatlarning ilm ahlini qabul qila boshlashi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Xususan, IX asrdan Buxoro "Qubbat ul-islom" – "Islom dinining qubbasi" ya'ni eng taraqqiy etgan manzillaridan biri sifatida, XIII asrdan boshlab "sharif shahar" nomi bilan ham tanilgan edi, u Buxoroyi sharif, ya'ni Sharofatli Buxoro nomi bilan atala boshlagan. Xorazmda esa Ma'mun akademiyasi (X-XI asrlar) tashkil etilishi, O'rta asrlarda Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar faqat Islom tariqatini o'rgatish bilan emas, bir vaqtning o'zida

dunyoviy ilm-ma'rifat va madaniyat tarqalishida muhim bilim uchog'i bo'lib xizmat qilgan va Movarounnahrning yirik markazlari sifatida shakllanganligi sababli barchani o'ziga jalb qila olgan. Dunyoga mashhur Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon, Abdulazizzon madrasalari, Samarqanddagi Ulug'bekk, Sherdor, Tillakori, Xivadagi Muhammad Rahimxon, Muhammad Amin Inoq madrasalari, Andijondagi Gumbaz madrasasi va boshqa ilm maskanlari shular jumlasidandir.

Ta'lim turizmi iqtisodiyotning doimiy o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lgan muhim tarmoqlaridan biri sanaladi. Lekin bugungi kunda bu sohaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapdi. Avvalo bu sohani mukammal o'rganib chiqish, uning ma'nosi, qanday turlari mavjudligiga e'tibor qaratishimiz zarur. Dunyoning eng rivojlangan davlatlari (AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) ta'lim turizmiga davlat darajasida e'tibor qaratib, tarmoq rivoji uchun davlat grantlari joriy qildi va bir vaqtning o'zida xususiy oliy va o'rta maxsus ta'lim turizmini ham qo'llab-quvvatladi. Olib borilgan to'g'ri islohotlar natijasida bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridan talabalar, olimlar o'zlarining bilim va malakasini oshirish maqsadida tashrif buyurib kelishmoqda.

Xulosa qilib, bu sohani rivojlantirish orqali yurtimizga valyuta tushumini sezilarli oshirishimiz va o'zaro malaka almashinish imkoniyatlarini yaratishimiz mumkin. Hozirda bu borada ko'p izlanishlar, yangi qarorlar joriy etilmoqda, shu bilan birga chet el tajribasini mukammal o'rganib, xatolardan to'g'ri xulosa chiqargan holda, ilm izlab kelmoqchi bo'lgan talabalar va olimlarning ham talab, istaklarini inobatga olsak, tez fursatlarda iqtisodiyotimizning ravnaqi uchun yana bir tarmoq o'zining hissasini qo'sha oladi. Hozir olib borilayotgan izlanishlarni yanada ko'paytirib, ularning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratishimiz bugungi kunda oldimizda turgan muhim qilinishi kerak bo'lgan vazifalardan biri sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ta'lim turizmining mohiyati, nazariy va konseptual asoslari" Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti . Maxmudova Nodira O'ktamovna
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. Лебедев А.Р. Образовательный туризм как экономическая категория / Современная экономика проблемы, тенденции, перспективы.-2012,-№6.